



Yurtimizda ta'lim tizimida yangi o'zgarishlar

Bebaho O'zbekistonimizda har sohada yangidan yangi o'zgarishlar, qator islohotlar davri qizg'in avj olmoqda. 9-10 sentabr kunlari Rossiya Federatsiyasi Oliy ta'lim vazirligining maxsus delegatsiyasi Toshkentga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini yanada isloh qilish masalalari ilgari surildi. Tadbirda mamlakatimizning qator oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari qatnashishdi. Shuningdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Go'zal Xoliqulova ham mazkur uchrashuvda ishtirok etdilar.



O'zbekiston Respublikasi endilikda Rossiya Federatsiyasi bilan ta'lim tizimidagi o'zaro aloqalarini yanada kengaytiradi. Mamlakatimizda yosh va malakali kadrlar tayyorlash, har taraflama jahon standartlariga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirish vazifalari yuzasidan tizim strukturasi o'rganib chiqildi. Shuningdek, o'rta-maxsus ta'lim sohasini professional darajaga ko'tarish, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatini tubdan isloh qilish borasida qator masalalar o'rtaga tashlandi.



Ta'lim sohasi doimo rivojlantirib borilishi kerak, zero butun dunyoda bo'layotgan yangiliklar va katta o'zgarishlar ilm-fan tamaddunining yangi sahifalarini ochadi. Ezgu maqsadlarga bel bog'lagan yurtdoshlarimizga omadlar tilaymiz!

Dostonbek RAHMATULLAYEV
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti matbuot xizmati kotibi